



UDK: 811.111:37.02:37.091.3

Gavhar KULDOSHEVA,
Navoiy davlat universiteti magistranti
E-mail: gavharsaidovnakuldosheva@gmail.com

PhD, dotsent A.Sobirov taqrizi asosida

DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING 4K COMPETENCIES IN STUDENTS' ENGLISH LESSONS

Annotation

This article emphasizes the need and didactic possibilities of forming 4K competencies in the educational process today. The problems in the process of forming 4K competencies in general secondary education and measures to eliminate them are highlighted.

Keywords: 4K competencies, creativity, communication, critical thinking, collaboration.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ УРОВНЯ 4К НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА У УЧАЩИХСЯ.

Аннотация

В данной статье подчеркивается необходимость и дидактические возможности формирования компетенций 4К в современном образовательном процессе. Осветлены проблемы процесса формирования компетенций 4К в общеобразовательной средней школе и меры по их устранению.

Ключевые слова: компетенции в области 4К, креативность, коммуникация, критическое мышление, командная работа.

O'QUVCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA 4K KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada bugungi kunda 4K kompetensiyalarining ta'lim jarayonida shakllantirish zaruriyati va didaktik imkoniyatlariga urg'u beriladi. Umumiy o'rta ta'limda 4K kompetensiyalari shakllantirish jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish choralarini yoritiladi.

Kalit so'zlar: 4K kompetensiyalari, kreativlik, muloqot, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va zamonaviy kompetensiyalarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, XXI asr ko'nikmalari sifatida e'tirof etilayotgan 4K kompetensiyalar – tanqidiy fikrlash (Critical thinking), muloqot (Communication), hamkorlik (Collaboration) va ijodkorlik (Creativity) o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojida muhim o'rin egallaydi. Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish va yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash – bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir"[1]. Ushbu fikr ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini yanada kuchaytiradi.

Til o'rganish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, jamoada ishlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuvni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ingliz tili fanining nafaqat lingvistik, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, zamonaviy didaktika nuqtayi nazaridan qaraganda, o'quvchilarning 4K kompetensiyalarini shakllantirish samarali metod va texnologiyalarni tanlash, dars jarayonini interfaol tashkil etish hamda o'quv faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rejalashtirishni talab etadi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ta'lim tizimini

modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz tilini o'rganish orqali o'quvchilar ko'plab zarur ko'nikmalarni egallashadi, masalan, muloqot qilish, mantiqiy fikrlash, jamoaviy ishlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish. Bular, o'z navbatida, o'quvchilarning kelajakdagi hayotida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalardir.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan 4K kompetensiyalariga ega bo'lgan shaxslar zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli moslashadi va raqobatbardosh bo'lib shakllanadi.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, solishtirish, baholash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish hamda muammoli vaziyatlarga ongli va mantiqiy yondashish qobiliyatini rivojlantiradi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda turli manbalardan kelayotgan ma'lumotlar ko'pligi sharoitida o'quvchilarning axborotni tanlab olish, uning ishonchligini aniqlash va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalariga ega bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Muloqot kompetensiyasi shaxsning o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq, ravon va mantiqiy izchillikda bayon eta olish, suhbatdoshni tinglash, bahs-munozaralarda ishtirok etish, o'z nuqtayi nazarini asoslab berish hamda samarali kommunikativ munosabatlarni yo'lga qo'yish qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, chet tillarni o'rganish jarayonida muloqot kompetensiyasining ahamiyati yanada ortadi, chunki til o'rganishning asosiy maqsadi kommunikativ

faoliyatni amalga oshirishdan iboratdir. Ingliz tili darslarida ushbu kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolaning maqsadi – ingliz tili darslarida o'quvchilarning 4K kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va usullarni aniqlash hamda ularning amaliy ahamiyatini asoslashdan iborat.

Hamkorlik kompetensiyasi o'quvchilarning jamoada ishlash, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish, vazifalarni taqsimlash, o'zaro mas'uliyatni his qilish va fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida guruhli ishlar, juftlikda ishlash, loyihaviy faoliyat va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etish orqali ushbu kompetensiyani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Ijodkorlik kompetensiyasi o'quvchilarning yangicha fikrlash, noodatiy g'oyalarni ilgari surish, muammolarga kreativ yondashish va innovatsion yechimlar topish qobiliyatini ifodalaydi. Ijodkorlik kompetensiyasi shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil va erkin fikrlash shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro tashkilotlar, jumladan OECD, UNESCO hamda Partnership for 21st Century Skills (P21) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 4K kompetensiyalarining ta'lim sifati va natijadorligini oshirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi [3]. Ushbu kompetensiyalar o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ijtimoiy moslashuvchanligi, hayotga tayyorgarligi va kasbiy yo'nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mualliflar ta'kidlashicha, aynan ta'limi jarayoni ushbu kompetensiyalarni tabiiy va uzviy shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, P.Griffin, B. McGaw va E.Care tadqiqotlarida 4K kompetensiyalarining o'quvchilarning muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ijobiy ta'siri ilmiy dalillar bilan isbotlangan[4].

Bugungi globalashuv, raqamlashtirish va axborot oqimining keskin ortishi sharoitida o'quvchilar oldida murakkab va tezkor qaror qabul qilishni talab etuvchi vaziyatlar ko'paymoqda. Shu bois an'anaviy bilimga yo'naltirilgan ta'lim modeli zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichidagi o'quvchilar (asosan 10–15 yosh) shaxsiy rivojlanishning muhim bosqichida bo'lib, ularda mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy munosabatlarga kirishish ehtiyoji kuchayadi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, aynan ushbu davrda tanqidiy va ijodiy fikrlash elementlarini shakllantirish samaraliroq kechadi [5]. Shu nuqtayi nazardan, 4K kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, guruhli va juftlikda ishlash metodlari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladi hamda ularning bilish faolligini oshiradi.

An'anaviy ta'lim modelida o'qituvchi asosiy bilim manbai bo'lib, o'quvchi esa asosan tinglovchi rolini bajaradi. Kompetensiyaviy yondashuvda esa o'quvchi ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur ikki yondashuvni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy

ta'lim modeli 4K kompetensiyalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, o'quvchilarni real hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4K kompetensiyalarini samarali shakllantirish fanlararo integratsiyani talab etadi. Ingliz tili darslari mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay platforma bo'lib, unda muloqot, hamkorlik va ijodiy faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari keng.

“Fanlararo integratsiya o'quvchilarda bilimlarni yaxlit tizim sifatida idrok etish, turli fanlarda egallangan ko'nikmalarni uyg'unlashtirish orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi”[6].

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'limda 4K kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida qator muammolar mavjud. Jumladan, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi, an'anaviy baholash tizimining ustunligi hamda o'quv yuklamasining ko'pligi shular jumlasidandir. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish zarur.

Bugungi globalashuv, axborot almashinuvi va keskin raqobat sharoitida ta'lim oldiga mutlaqo yangi talablar qo'yilmoqda. Endilikda maktab faqat o'quvchiga ma'lum hajmdagi bilimni yetkazib beruvchi maskan bo'lib qolmasdan, balki uni real hayotga tayyorlaydigan, mustaqil fikrlashga o'rgatadigan, ijtimoiy munosabatlarda faol bo'lishga undaydigan va yangilik yaratishga qodir shaxs sifatida shakllantiradigan muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy ta'lim tizimida 4K kompetensiyalar, ya'ni kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning ingliz tili darslarida 4K kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari juda keng. Chunki “ingliz tili fani faqat til o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchini fikrlashga, muloqot qilishga, hamkorlikda ishlashga va yangicha yondashuv topishga ham o'rgatadi. Ingliz tili o'z tabiatiga ko'ra kommunikativ fan bo'lib, unda bilimlar tayyor qoidalar shaklida yodlatilmaydi, balki amaliy faoliyat, nutqiy vaziyat, suhbat, bahs, tinglash, yozish, tahlil qilish va ifodalash jarayonida egallanadi” [7]. Demak, bu fan o'quvchidan passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishni talab qiladi. Aynan shu jihat ingliz tili darslarining didaktik salohiyatini oshiradi.

Avvalo, ingliz tili darslari o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun tabiiy va samarali muhit yaratadi. Chunki har bir darsning markazida til vositasida fikr almashish, savol berish, javob qaytarish, suhbat qurish, voqea-hodisalarga munosabat bildirish, tinglangan yoki o'qilgan matn mazmunini tushuntirish kabi faoliyat turlari turadi. O'quvchi dars davomida ingliz tilida o'z fikrini ifodalashga intilar ekan, u faqat yangi so'z va grammatik birliklarni o'rganib qolmaydi, balki o'z fikrini aniq, ravon va mantiqiy tarzda bayon etish malakasini ham rivojlantiradi. Muloqot jarayonida tinglash madaniyati, suhbatdoshni hurmat qilish, fikrni to'g'ri yetkazish, kerak bo'lsa, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Bu esa kommunikatsiyaning mazmunini oddiy gaplashuv darajasidan ko'tarib, ongli va maqsadli nutqiy faoliyatga aylantiradi.

Hozirgi davrda insonning yakka-til bilan emas, balki jamoada samarali ishlash qobiliyati juda muhim hisoblanadi. Ingliz tili darslarida esa juftlikda ishlash, kichik guruhlarda topshiriq bajarish, birgalikda muammoni tahlil qilish, dialog va sahna ko'rinishlari tayyorlash, loyihalar yaratish kabi metodlar keng qo'llanadi. Bunday faoliyat o'quvchini boshqalar bilan kelishishga, fikr almashishga, vazifalarni

taqsimlashga, sheriklarining g'oyalarini inobatga olishga va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishga o'rgatadi.

Shuningdek, "ingliz tili darslari kritik fikrlashni rivojlantirish uchun ham ulkan imkoniyatlarga ega. Chunki tilni o'rganish jarayoni ko'plab tahliliy va mantiqiy amallarni talab qiladi. O'quvchi matn o'qiganda undagi asosiy g'oyani aniqlaydi, muallif fikrini tushunadi, voqealar orasidagi bog'liqlikni topadi, xulosalar chiqaradi, ayrim fikrlarga qo'shiladi yoki ularga qarshi dalil keltiradi"[8]. Tinglab tushunish mashqlarida esa aytilgan axborotni saralaydi, eng muhim jihatlarni ajratib oladi, yashirin ma'nolarni anglashga harakat qiladi. Savol-javob, muhokama va munozaralarda o'quvchi "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Siz bu vaziyatda nima qilgan bo'ladingiz?", "Qaysi nuqtayi nazar to'g'riroq va nima sababdan?" kabi savollar ustida bosh qotiradi. Bunday yondashuv esa uni tayyor javoblarni qabul qiluvchi emas, balki axborotni tahlil qiluvchi, dalillovchi, solishtiruvchi va mustaqil qaror chiqaruvchi shaxsga aylantiradi. Ayniqsa, ingliz tilidagi matnlar orqali turli madaniyatlar, qarashlar va ijtimoiy masalalar bilan tanishish kritik fikrlashni yanada chuqurlashtiradi.

Bu yerda ingliz tili fanining didaktik imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglash uchun uning metodik tabiatiga e'tibor qaratish lozim. Mazkur fan boshqa ayrim fanlardan farqli ravishda faqat nazariy bilim berishga emas, balki bevosita faoliyatga asoslanadi. "Tilni o'rganish til bilan ishlash orqali amalga oshadi. Boshqacha aytganda, o'quvchi tildan foydalanibgina uni egallaydi. Bu esa darsni jonli, interaktiv, ko'p tomonlama fikrlashga undovchi jarayonga aylantiradi. O'qituvchi grammatikani tushuntirishi mumkin, ammo haqiqiy natija o'quvchi uni nutqda qo'llaganida, suhbatda ishlatganida, yozma topshiriqda aks ettirganida yuzaga chiqadi"[9]. Aynan mana shu amaliy yo'naltirilganlik 4K kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy didaktik poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tili darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirish uchun turli pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, bahs-munozara usuli o'quvchilarda ham kommunikatsiya, ham kritik fikrlashni kuchaytiradi. Loyiha metodi esa kollaboratsiya va kreativlikni uyg'un ravishda rivojlantiradi. Rolli o'yinlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, ularni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar esa mustaqil izlanish, tahlil va noodatiy yechim

topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Matn tahliliga asoslangan topshiriqlar o'quvchini axborotni tanlash, saralash, baholash va unga munosabat bildirishga o'rgatadi. Taqdimotlar, esse yozish, poster yaratish, mini-loyihalar tayyorlash kabi ish turlari esa o'quvchining til ko'nikmalari bilan birga uning shaxsiy pozitsiyasi va ijodiy imkoniyatlarini ham namoyon etishga xizmat qiladi.

Didaktik nuqtayi nazardan, 4K kompetensiyalarni samarali shakllantirish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlar ta'minlanishi zarur. Eng avvalo, o'quvchi markazli yondashuv ustuvor bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchi asosiy ma'lumot beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va o'quvchining mustaqil faoliyatini tashkil etuvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi. Ikkinchidan, darslarda interfaol metodlar muntazam qo'llanishi lozim. Chunki an'anaviy, biryoqlama tushuntirish usuli 4K kompetensiyalarni chuqur rivojlantirish uchun yetarli emas. Uchinchidan, topshiriqlar hayotiy, qiziqarli, muammoli va o'quvchining yoshi hamda tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi kerak. To'rtinchidan, darsda psixologik jihatdan firkin muhit yaratilishi zarur. O'quvchi xatodan qo'rqmay erkin bildirsa, u ko'proq ijod qiladi, ko'proq savol beradi va faolroq ishtirok etadi

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "ingliz tili darslarida 4K kompetensiyalari bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro integratsiyalashgan tarzda shakllanadi. Masalan, o'quvchilar guruh bo'lib biror mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlayotgan bo'lsa, ular bir vaqtning o'zida hamkorlik qiladi, o'zaro muloqotga kirishadi, materialni tanlayotganda tanqidiy fikrlaydi va taqdimotni qiziqarli qilish uchun ijodiy yondashadi" [10].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darsi faqat so'z va grammatikani o'rgatuvchi fan emas, balki o'quvchining tafakkurini charxlovchi, nutqini rivojlantiruvchi, jamoada ishlashga o'rgatuvchi va ijodkorligini yuzaga chiqaruvchi muhim pedagogik maydondir. Shu sababli ingliz tili ta'limini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli topshiriqlar va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish orqali o'quvchilarda 4K kompetensiyalarni samarali shakllantirish mumkin. Bunday yondashuv esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, mustaqil fikrlaydigan, muloqotga kirisha oladigan, hamkorlikka tayyor va ijodkor shaxslarni kamol toptirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari va ma'ruzalari to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi qaror va nutqlar, 2022.
3. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009. B. 63–91.
4. Скурко Е.В. [Рец.] // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература : ИАЖ. Сер. 4: Государство и право. – 2023. – № 2. – С. 181–184.
5. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. –Cambridge: Cambridge University Press, 2014. –B. 87–110.
6. Akhmetova G.K., Karayev Z.A., Mukhanbetzhanova S.T. Methodology of organizing teacher training when electronic education is introduced. Almaty: OJSC "BAO "Orleu", 2012. 418 p
7. Al-Tamimi, N.O., & Attamimi, R.A. (2014). Effectiveness of cooperative learning in enhancing speaking skills and stitudes towards learning English. International Journal of Linguistics, 6(4), 27. <https://www.macrothink.org/journal/index.php/ijl/article/view/6114>
8. Beghetto, R.A., & Plucker, J.A. The relationship among schooling, learning, and creativity: "all roads lead to creativity" or "You can't get there from here"? In J.C. Kaufman & J.Baer (Eds.), Creativity and Reason in Cognitive Development. Cambridge University Press. 2006. -P. 316–332.
9. Craft, A. The limits to creativity in education: Dilemmas for the educator. British Journal of Educational Studies, 2003. 51(2), 113–127. <https://doi.org/10.1111/1467-8527.t01-1-002296>.
10. Dewey J. Democracy and education. The Pennsylvania State University. <https://doi.org/10.1080/0013172520934>